

ISSN: 2181-4007

www.tnmu.uz

THE JOURNAL

OF HUMANITIES & NATURAL SCIENCES

GUMANITAR VA TABIIY FANLAR JURNALI

VOLUME II

ISSUE III

2023



Informing scientific practices around the world through research and development



TIBBIYOT

NASHRIYOTI

MATBAA UYI

**Gumanitar va
tabiiy fanlar
jurnali**



**Journal of
humanities &
natural sciences**

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

ISSN: 2181-4007 (print)

№ 3 (09), 2023

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan (guvohnoma № 040226).

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2023 yil 1 iyundan tibbiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan (2023 yildagi 01-07/710/1-sonli xat).

Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан (свидетельство № 040226).

Журнал включен в перечень научных изданий, рекомендованных к публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам с 1 июня 2023 года Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан (письмо № 01-07/710/1 от 2023).

TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi - 2. 100109
Tel.: (+998-91) 164-24-40, (+998-71) 214-90-164,
vebsayt: www.tmmu.uz, e-mail: asmehrid@gmail.com

COVID-19 BILAN BOG'LIQ FETOPLASENTAR DISFUNKSIYA MAVJUD HOMILADOR AYOLLARDA PLASENTANING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xolova Zarina Boymurodovna

Jalolova Gavhar

Axmedova Mohlaroyim Qurbonaliyeva

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi (Toshkent, O'zbekiston)

Abstrakt. Ushbu maqolada homiladorligida COVID-19 bilan bog'liq fetoplatsentar disfunktsiyasini o'tkazgan tuqqan ayollarda platsentaning morfoloqik tadqiqot natijalari keltirib o'tilgan. Tadqiqotda COVID-19 tashxisi qo'yilgan 50 nafar homilador ayolda platsenta biopsiyasi preparatlari natijalari tahlil qilindi. COVID-19 bilan bog'liq fetoplatsentar disfunktsiya bilan asoratlangan tuqqan ayollarda platsentasining tekshiruvi natijalari, platsenta maydonining kamayishi, xorion villalarining tuzilishidagi buzilishlarni, shuningdek yallig'lanish belgilari bo'lgan hujayralar sonining ko'payganligini aniqlandi. Ushbu natijalar COVID-19 kasalligi chaqiruvchi SARS-CoV-2 virusining platsentaga ta'sirini yaxshiroq tushunishga va COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda fetoplatsentar disfunktsiya rivojlanish sabablarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar. COVID-19, homiladorlik, fetoplatsentar disfunktsiya, platsenta.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЛАЦЕНТЫ У БЕРЕМЕННЫХ С ФЕТОПЛАЦЕНТАРНОЙ ДИСФУНКЦИЕЙ, АССОЦИИРОВАННОЙ С COVID-19

Холова Зарина Боймуродовна

Жалолова Гавхар

Ахмедова Мохларойим Курбоналиевна

Ташкентская Медицинская Академия (Ташкент, Узбекистан)

Абстракт. В статье приводятся результаты морфологического исследования плаценты у женщин, у которых во время беременности наблюдалась фетоплацентарная дисфункция, ассоциированная с COVID-19. В ходе исследования были проанализированы результаты биопсии плаценты препаратами у 50 беременных женщин с диагнозом COVID-19. Результаты морфологического исследования плаценты у женщин, родивших с осложнениями фетоплацентарной дисфункции, связанными с COVID-19, показали уменьшение плацентарного пространства, нарушения в структуре vill хориона, а также увеличение количества клеток с признаками воспаления. Эти результаты помогают лучше понять влияние вируса SARS-CoV-2 на плаценту, которое называется заболеванием COVID-19, и выявить причины развития фетоплацентарной дисфункции у беременных женщин с COVID-19.

Ключевые слова. COVID-19, беременность, фетоплацентарная дисфункция, плацента.

Dolzarbliqi. So'nggi yillarda COVID-19 bilan kasallanish eng dolzarb tibbiy muammolardan biriga aylandi, bu esa homiladorlarda asoratlar ulushini sezilarli ortishiga olib keldi [1-3]. Eng jiddiy asoratlardan

biri fetoplatsentar disfunktsiya bo'lib, bu o'z navbatida homila o'sishining chegaralanishiga va muddatidan oldin tug'ilishga olib kelishi mumkin [4-7]. COVID-19 kasalligining homiladorlikka ta'sirini o'rganish bo'yicha

ko'plab tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay, homiladorlikda fetoplatsentalar disfunktsiya o'tkazgan tuqqan ayollarda SARS-CoV-2 virusining platsentada olib keladigan morfologik o'zgarishlar haqida yetarli ma'lumot yo'q [8-12]. Bu esa izlanuvchilardan, COVID-19 bilan bog'liq fetoplatsentalar disfunktsiyaning patogenezini muhim jihatlarni ochib beruvchi mazkur kasallik bilan bog'liq platsentadagi morfologik o'zgarishlarni batafsilroq o'rganishni talab qiladi [13-15].

COVID-19 bilan bog'liq fetoplatsentalar disfunktsiya mavjud homilador ayollarda platsentaning morfologik xususiyatlarini o'rganish muhim klinik ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy mavzudir [16-18]. COVID-19 kasalligining o'ziga xos xususiyati uning platsenta qon tomir tizimlariga, shu jumladan platsenta qon ta'minoti tizimiga ta'siridir. Bu o'z navbatida ona va homiladorlikdagi metabolizm jarayonlari va gaz almashinuvining buzilishiga olib kelishi sababli homiladorlik uchun potentsial xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin [19-22].

Bulardan tashqari, SARS-Cov-2 virusining platsentaga ta'sir qilish mexanizmlari hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan. COVID-19 bilan bog'liq fetoplatsentalar disfunktsiya mavjud homilador ayollarda platsentadagi morfologik o'zgarishlar ushbu asoratning patogenezini chuqurroq tushunishga yordam beradi va homiladorlik natijalarini tashxislash, davolash va bashorat qilishning yangi usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi COVID-19 kasalligi bilan bog'liq fetoplatsentalar disfunktsiya mavjud homilador ayollarda platsentaning morfologik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotda 150 nafar tuqqan ayollar ishtirok etdi: ulardan 60 nafari homiladorlikni ikkinchi trimestrida koronavirus kasalligini o'tkazgan ayollar, va 60 nafari homiladorlikni uchinchi trimestrida koronavirus kasalligini o'tkazgan ayollar tashkil etdi. Nazorat guruhini homiladorlik paytida COVID-19

kasalligi bilan kasallanmagan 30 nafar sog'lom ayollar tashkil etdi. Tadqiqot 2021-2023 yillar oralig'ida Toshkent shahar 9-son tug'ruq kompleksida o'tkazildi. Morfologik tadqiqotlar Respublika Patologik anatomiya markazida o'tkazildi. Tadqiqotga kiritilgan barcha tuqqan ayollarda tug'ruqdan keyin platsentalarining morfologik tadqiqotlari o'tkazildi. Platsenta to'qimalari formalarga solinib, parafin ichiga joylashtirildi va undan yupqa kesmalar tayyorlandi. Bu yupqa kesmalarni morfologik baholash uchun ular gematoksilin va eozinda buyaldi. Platsentaning morfologik xususiyatlarini baholashda undagi xorion strukturasi, vaskulyarizatsiya jarayoni baholandi.

Tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish Spirimenning darajali korrelyatsiyasi usulida statistik dasturlarning STATISTICA 10,0 standart paketi hamda tabiiy juftlar o'rtasida o'zaro bog'langan 2 variatsion qator xatosini aniqlash bilan Epi Info 7.2.2.2 statistik dasturi usulida ishlov berildi. $p < 0,05$, $p < 0,01$, $p < 0,001$ da farqlar ishonchli deb qabul qilindi.


Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalarini tahlili shuni ko'rsatdiki, COVID-19 kasalligi bilan kasallangan homilador ayollarda fetoplatsentalar disfunktsiyani rivojlanish xavfi ortadi. Morfologik tekshiruv platsentada gistologik o'zgarishlar mavjudligini, shu jumladan platsenta tomirlarining yaxlitligini buzishi va xorion morfologiyasining o'zgarishini aniqladi.

Morfologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, homiladorligini ikkinchi va uchinchi trimestrlarda COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarning platsentalari sog'lom homilador ayollarnikiga qaraganda yaqqolroq fetoplatsentalar disfunktsiya kuzatilganligidan dalolat beradi.

COVID-19 platsenta tomirlari endoteliysini shikastlanishi yuqori dalton birligidagi oqsillarning (fibrinogen) tomirdan tashqariga chiqishi va fibrinli tiqilmalarni vujudga keltiradi va natijada shu soxada morfofunksional jixatdan majrux yuzalar shakllanishiga olib keladi. 32% muddatidan

oldin tuqqan ayollar yo'ldoshning morfologik tekshiruvda ona qismi qon tomirlari atrofida ko'plab gemoliz o'choqlari, xorion so'rg'ichlari yuzasida shilimshiqli fibrin aralash


lash massa sintitsiotrofoblastlarning deskvamatsiyasi va ikkilami fetoplatsentar yetishmovchilik o'choqlari aniqlandi (1-rasmga qara).



1-Rasm. 29 haftalik yo'ldosh. Yo'ldoshning ona qismi qon tomirlari atrofida ko'plab gemoliz o'choqlari (1), xorion so'rg'ichlari yuzasida shilimshiqli fibrin aralash massa sintitsiotrofoblastlarning deskvamatsiyasi va ikkilami fetoplatsentar yetishmovchilik o'choqlari (2). Bo'yoq G.E. O'lchami 20x10.

45% tuqqan ayollarda xorion vorsinalari atrofida distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar, fibrinoid tuzilmalarning ko'payishi


va xorion vorsinasining tomirlarida notekis to'laqonlik aniqlandi (2-rasmga qara)



2-Rasm. Yo'ldoshning muddatdan oldin invalyutsiyasi 31 haftalik yo'ldosh. Xorion vorsinalari atrofida distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar (1), fibrinoid tuzilmalarning ko'payishi (2), xorion vorsinaning tomirlarida notekis to'laqonlik (3). Bo'yoq G.E. O'lchami 10x10.

24% muddatidan oldin tuqqan ayollarning yo'ldoshining morfologik tadqiqoti markazga yaqin so'rg'ichlar atrofida to'q pushti rangdagi fibrinoid cho'kmalar

(Langxans fibrinoidi), periferik so'rg'ichlar stromasida interstitsial shish, vakuolali tuzilmalar va atrofida gemoliz o'choqlari aniqlandi (3-rasmga qara).



3-Rasm. 31 haftalik yo'ldosh. Yo'ldoshning markazga yaqin soxasi. Markazga yaqin so'rg'ichlar atrofida to'q pushti rangdagi fibrinoid cho'kmalar (Langxans fibrinoidi) (1), periferik so'rg'ichlar stromasida interstitsial shish, vakuolali tuzilmalar va atrofida gemoliz o'choqlari (2). Bo'yoq G.E. O'lchami 20x10

Bulardan tashqari platsentaning morfologik tadqiqotida villalari sonining kamayishi, qon tomirlari tuzilishining o'zgarishi va platsentaning oqsil membranasining qalinlashishini aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda platsentada morfologik o'zgarishlar aniqlandi, masalan, platsenta hajmining kichrayishi, xorionik villalar sonining kamayishi, sinusoidal kapillyarlar sonining kamayishi aniqlandi.

Ushbu o'zgarishlar fetoplsentar disfunktsiya rivojlanishiga va bu o'z navbatida homilaning oziqlanishini buzilishiga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari fetoplsentar disfunktsiyaning rivojlanishi va uning bola salomatligi uchun oqibatlarini o'z vaqtida oldini olish uchun COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda platsentani batafsil o'rganish zarurligini anglatadi.

Xulosa. COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda SARS-Cov-2 virusi platsentada morfologik o'zgarishlariga olib kelib bu o'z navbatida ularda fetoplsentar disfunktsiyani rivojlanishiga sababchi bo'lib qoladi. Morfologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, homiladorligini ikkinchi va uchinchi trimestrlarda COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarning platsentalari sog'lom homilador ayollarnikiga qaraganda yaqqolroq fetoplsentar disfunktsiya kuzatilganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Адамьян Л. В., Азнаурова Я. Б., Филиппов О.С. COVID-19 и женское здоровье (обзор литературы)//Проблемы репродукции.2020;26(2):6-17.

2. Беженарь В.Ф., Романова М.Л., Нестеров И.М., Добровольская И.А. Анализ течения и исходов беременности у

женщин с различной степенью тяжести новой коронавирусной инфекции COVID-19 в Санкт-Петербурге уроки пандемии. *Акушерство, Гинекология и Репродукция*. 2022;16(4):365-380

3. Временное клиническое руководство по ведению COVID-19 при беременности, родах и послеродовом периоде // Ташкент-2020г.- С.31.

4. Гумилевский Б.Ю., Москалев А.В., Гумилевская О.П., и др. Особенности иммунопатогенеза новой коронавирусной инфекции // *Вестник Российской военно-медицинской академии*. 2021. Т. 23, № 1. - С.187-198.

5. Доброхотова Ю.Э., Гуменюк Л.Н., Пучкина Г.А., Михайличенко В.Ю. Осложнения и исходы беременности у женщин с COVID-19. *Акушерство и гинекология*. 2022; 3: 32-38.

6. Ихтиярова Г.А., Насритдинова Ш.И., Хайдарова Н.Б. Прогнозирование внутриутробной задержки и гибели плода у женщин перенесших вирусную инфекцию // *Биология ва тиббиёт муаммолари*. -2021. №1. (126). - С.132-136.

7. Рузметова Н.Ф., Шукуров Ф.И. COVID-19 билан касалланган аёлларда ривожланмаган ҳомилдорликни тўхташида хавфсиз ва самарадор усуллар // *Журнал инфекция, иммунитет и фармакология*, №3, 2022. С.209-213.

8. Рузметова Н.Ф., Шукуров Ф.И. Цитокиновый статус женщин с неразвивающейся беременностью, ассоциированной с COVID-19 // *Вестник Ташкентской медицинской академии*. 2023. №6. С.127-129.

9. Рузметова Н.Ф., Шукуров Ф.И. Оценка клинико-диагностических критериев неразвивающейся беременности у женщин с COVID-19 // *Материалы конгресса «XVII международный конгресс по репродуктивной медицине» М., 2023 - С.80-81.*

10. D.M. Mamajanova., F.I. Shukurov COVID-19ga qarshi emlangan homilador

ayollarda gemostaz tizimining xususiyatlari // *Журнал Тиббиётда янги кун*. 10 (48) 2022., С.47-51.

11. Nuriel-Ohayon M, Hadar N, Omry K. Microbial changes during pregnancy, birth, and infancy. *Fron Microbiol*. 2016; 7: 1031.

12. Fortner K.B, Grotegut C.A, Ransom C.E, et al. Bacteria localization and chorion thinning among preterm premature rupture of membranes. *PLoS One*.2014;9(1):e83338

13. Steel JH, Malatos S, Kennea N, et al. Bacteria and inflammatory cells in fetal membranes do not always cause preterm labor. *Pediatr Res*. 2005; 57(3): 404-411.

14. Stout MJ, Conlon B, Landeau M, et al. Identification of intracellular bacteria in the basal plate of the human placenta in term and preterm gestations. *Am J Obstet Gynecol*. 2013;208(3):226.e1-7.

15. Pelzer E, Gomez-Arango LF, Barrett HL, Nitert MD. Review: maternal health and the placental microbiome. *Placenta*. 2017;54:30-37.

16. Collado MC, Isolauri E, Laitinen K, Salminen S. Distinct composition of gut microbiota during pregnancy in overweight and normal-weight women. *Am J Clin Nutr*. 2008;88(4):894- 899.

17. Antony KM, Ma J, Mitchell KB. The preterm placental microbiome varies in association with excess maternal gestational weight gain. *Am J Obstet Gynecol*. 2016; 212 (5):1-16.

18. Reinhardt C, Reigstad CS, Backhed F. Intestinal microbiota during infancy and its implications for obesity. *J Pediatr Gastroenterol Nutr*. 2009;48(3):249-256.

19. Han Y.W, Fardini Y, Chen C, et al. Term stillbirth caused by oral *Fusobacterium nucleatum*. *Obstet Gynecol*. 2010; 115 (2 Pt 2): 442-445.

20. Jimenez E, Fernandez L, Marn ML, et al. Isolation of commensal bacteria from umbilical cord blood of healthy neonates born by cesarean section. *Curr Microbiol*. 2005;51(4):270- 274.

MORPHOLOGICAL FEATURES OF THE PLACENTA IN PREGNANT WOMEN WITH FETOPLACENTAL DYSFUNCTION ASSOCIATED WITH COVID-19

Kholova Zarina Boimurodovna

Jalolova Gavhar

Akhmedova Mokhlaroyim Kurbonalievna

Tashkent Medical Academy (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article cites the results of a Morphological Study of the placenta in women who gave birth to fetoplacental dysfunction associated with COVID-19 during their pregnancy. The study analyzed the results of placental biopsy drugs in 50 pregnant women diagnosed with COVID-19. The results of placental testing in women who gave birth to complications of fetoplacental dysfunction associated with COVID-19 were found to show decreased placental space, disturbances in the structure of chorionic villi, as well as an increase in the number of cells with signs of inflammation. These results help to better understand the effect of the virus SARS-CoV-2 on the placenta, which is called the COVID-19 disease, and identify the causes of the development of fetoplacental dysfunction in pregnant women with COVID-19.*

Keywords: *COVID-19, pregnancy, fetoplacental dysfunction, placenta.*

Мамажонова Д.М., Жалолова Г., Ахмедова М.Қ. Коронавирусга қарши эмланган ҳомиладор аёлларда фетоплацентар тизим гемодинамик ва гормонал кўрсаткичларини баҳолаш	188
Аслонова М.Р. / Оценка интерферонового статуса у пациентов с сахарным диабетом 2 типа, инфицированных COVID-19	196
Mirzaev V.I., O'rokov Sh.T. / Improving the effectiveness of surgical treatment in cases of acute pancreatitis, chronic diffuse liver diseases	203
Мирзаев В.И., Уроков Ш.Т. / Повышение эффективности хирургического лечения при остром панкреатите, хронических диффузных заболеваниях печени	213
Xolova Z.B., Jalolova G., Axmedova M.Q. / COVID-19 bilan bog'liq fetoplasentar disfunktsiya mavjud homilador ayollarda plasentaning morfologik xususiyatlari	214
Аслонов М.Н., Сайфуллаева С.А. / Методы доклинической диагностики нарушений внутренних органов у пациентов, перенесших COVID-19	220

КОНСПЕКТ ПРАКТИЧЕСКОГО ВРАЧА

Khayriyeva M.F. / Poststroke cognitive impairment and dementia. Treatment of cognitive impairment	226
Буриев М.Н., Усманханов О.А. / Стимуляция крыши вертлужной впадины при остаточной дисплазии тазобедренного сустава у детей	231
Ўроков Ш.Т., Холиқов Ф.Й. / Комбинациялашган хирургик патологияларда лапароскопик даво усуллари кўллаш	235